

Inkluziv ta'limda qo'llaniladigan metod va usullar samaradorligi

Dilshoda Mansurali qizi Boymirzayeva
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati va uning asosiy tamoyillari, inklusiv ta'limda qo'llaniladigan pedagogik metodlar va usullarning samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Inklusiv ta'limning asosiy maqsadi - har bir o'quvchiga uning ehtiyojlariga mos, teng imkoniyatlar yaratishdir. Maqolada inklusiv ta'limning asosiy tamoyillari, jumladan, tenglik,adolat, individual yondoshuv, hamkorlikda o'qish va bag'rikenglik kabi tushunchalar tahlil etilgan. Shuningdek, o'quvchilarining individual ehtiyojlarini hisobga olish uchun qo'llaniladigan metodlar, masalan, differentsial ta'lim, multimodal yondoshuv, kooperativ ta'lim, ko'p bosqichli yondoshuv (scaffolding) va praksisga yo'naltirilgan ta'lim kabi pedagogik yondoshuvlar batafsil ko'rib chiqilgan. Har bir metodning o'quvchilarining o'r ganish jarayonidagi samaradorligi va ta'limdagi muvaffaqiyatiga bo'lgan ta'siri baholangan.

Kalit so'zlar: inklyuziv, metod, differensial, multimodal, tamoyil, kooperativ, xalqaro tajriba, motivatsiya, kombinatsiya

The effectiveness of methods and techniques used in inclusive education

Dilshoda Mansurali kizi Boymirzayeva
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: His scientific article is devoted to the analysis of the essence of inclusive education and its main principles, the effectiveness of pedagogical methods and methods used in inclusive education. The main goal of inclusive education is to create equal opportunities for each student according to his needs. The article analyzes the main principles of inclusive education, including concepts such as equality, justice, individual approach, cooperative learning and tolerance. Pedagogical approaches such as differentiated instruction, multimodal approach, cooperative learning, multi-level approach (scaffolding) and practice-oriented learning are also detailed to take into account the individual needs of students. considered. The effect of each method on the effectiveness of the students in the learning process and the success in education was evaluated.

Keywords: inclusive, method, differential, multimodal, principle, cooperative, international experience, motivation, combination

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasida inklyuziv ta'limning roli va ahamiyati ortib bormoqda. Inklyuziv ta'lim - bu har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda, barcha o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish va ularning individual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim yondoshuvidir. Inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi uchun turli pedagogik metodlar va usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim, turli ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, yoki jismoniy imkoniyatlarga ega bo'lgan barcha o'quvchilarga ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta'limda ta'lim metodlari va usullarining samaradorligi o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish, o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik- psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o'rghanish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi.¹

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator qarorlar va normativ hujjalalar qabul qilingan. Bu qarorlar imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash, ularni umumta'lim maktablariga integratsiyalash va maxsus ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

1. “2030-yilgacha bo'lgan Inklyuziv ta'lim dasturi”. Ushbu dastur Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar ko'magida ishlab chiqilgan.²

2030-yilgacha inklyuziv ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Dastur imkoniyati cheklangan bolalarga to'liq inklyuziv ta'lim olish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydag'i PQ-4312-sun qarori

¹ Inkluyuziv ta'lim. Gospital Pedagogika. N. P. Goipova Namangan-2024 7-bet

² O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sun farmoni

Bu qarorda “Maxsus ehtiyojli bolalarning ta’lim olish huquqlarini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” ko‘rsatmalar berilgan. Qarorda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarga umumiy ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish va maxsus xizmatlarni ko‘paytirish haqida so‘z boradi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagagi PQ-5198-son qarori“Ta’lim sifatini oshirish va imkoniyati cheklangan bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish” haqidagi ushbu qarorda inklyuziv ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar va rejallarga urg‘u berilgan. Qarorda maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, ularga maxsus metodik yordam ko‘rsatish, psixologik xizmatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari va maqsadlari

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari barcha o‘quvchilarga teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga, ular orasidagi tafovutlarni minimallashtirishga qaratilgan. Bu tamoyillarni amalga oshirishda o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ta’lim jarayonini moslashtirish va o‘quvchilarni ta’limga jalb etish asosiy maqsadlardir. Inklyuziv ta’lim tizimi o‘zida bir qancha muhim tamoyillarni mujassam etadi. Bu tamoyillar, birinchi navbatda, barcha bolalarning teng ta’lim olish huquqini tan olishga asoslanadi. Ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalar, alohida ehtiyojlar bo‘lgan bolalar, shuningdek, boshqa barcha o‘quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratilishi kerak. Bu tizimda bola o‘z qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab maxsus metod va yondoshuvlar orqali ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim tizimining ikkinchi tamoyili - o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasi. Bu tamoyil, o‘quvchilarni birgalikda o‘qish va o‘rganishga, jamiyatda teng va hurmatga loyiq fuqarolar sifatida o‘sib rivojlanishga o‘rgatishdan iborat. Bu orqali barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va boshqalar bilan teng muomala qilishni o‘rganadilar. Uchinchidan, inklyuziv ta’lim tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu tamoyilga ko‘ra, har bir bola o‘ziga mos ta’lim muhitida va o‘z qibiliyatlariga mos ravishda ta’lim olish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Maxsus dasturlar va metodikalarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarni individual ravishda o‘rgatish imkoniyatini yaratadi.³

2. Inklyuziv ta’limda quyidagi tamoyillar alohida e’tiborga loyiqdir:

Tenglik va inson huquqlari: Har bir o‘quvchi teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak, shu jumladan, maxsus ehtiyojlar bo‘lganlar ham. Individual yondoshuv: O‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘rganish ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni tashkil etish. O‘quvchilarni faol jalb etish: Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning fikrlarini inobatga olish. Ishtirok etuvchi va kooperativ ta’lim: O‘quvchilarning o‘zaro yordam berish, guruhlarda ishlash orqali

³ Inclusive ta’lim tizimi: imkoniyati cheklangan bolalar uchun yangi imkoniyatlar. F.M. Majidova 2024. 162-163-bet

ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash. Inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan asosiy metod va usullar.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilarning moslashishiga yordam beradi. Mavzu va topshiriqlarni tushunishda qo'shimcha yordam ko'rsatiladi. Samaradorlik tahlili. Inklyuziv ta'limda yuqorida ko'rsatilgan metodlarning samaradorligi o'quvchilarning turli ehtiyojlariga qanchalik mos ekanligiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyaga asoslangan metodlar va guruhli o'qitish usullari imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim jarayoniga integratsiyasini yengillashtiradi. Shu bilan birga, murabbiylik va qo'llab-quvvatlash usullari psixologik jihatdan yordam berish orqali o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Differensial yondashuv esa inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish uchun individual ehtiyojlarga mos ta'limni ta'minlash imkonini beradi. Turli metodlarni qo'llash orqali ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha o'quvchilarning qiziqishi va ta'lim olish jarayonidagi faoliyatni oshadi.

Inklyuziv ta'limda metod va usullar samaradorligini o'rghanish

Inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan metodlarning samaradorligini baholashda turli ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar yordamida olingan natijalar muhim o'rin tutadi. Samaradorlikni o'lchashda quyidagi mezonlar asosiy ahamiyatga ega:

O'quvchilarning akademik muvaffaqiyatlari: Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlarning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'siri o'rghaniladi. O'quvchilarning yuqori darajadagi bilimni o'zlashtirishlari, testlar va baholash orqali aniqlanadi. Differensial o'qitish va ko'p usullilik metodlari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yaxshilashda samarali bo'ladi. Ijtimoiy va emosional faollik:

Xulosa va tavsiyalar

Inklyuziv ta'lim - bu ta'limdagi tenglikni ta'minlash, har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga olish va ularni muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli sharoitlarni yaratish maqsadida amalga oshiriladigan ta'lim tizimi. Inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan metodlar va usullar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Samarali metodlarni qo'llash o'quvchilarning akademik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga, ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan metod va usullar o'quvchilarning turli ehtiyojlarini inobatga olish va ta'limni moslashtirish orqali samarali natijalarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Differensial o'qitish, ko'p usullilik, guruhli ishslash va individual yondoshuvlar inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda samarali vositalar hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning samaradorligi o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatlari, ijtimoiy ko'nigmalarini va motivatsiyalarining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'limda tenglikni ta'minlash va har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirish inklyuziv

ta'limning asosiy maqsadi bo'lib, pedagoglar ushbu maqsadga erishish uchun turli metodlarni qo'llashda o'zining malakali yondoshuvini namoyish etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydag'i PQ-4312-sон qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5198-sон qarori
3. "2030-yilgacha bo'lган Inklyuziv ta'lim dasturi"
4. "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metod" F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Chirchiq.2022.
5. Tomlinson, C. A. (2001). Mixed-Ability Sinflarda Ta'limni Farqlash. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development.
6. Gardner, H. (1993). Aqlning Ramkalari: Ko'p Intellektualar Nazariyasi. New York: Basic Books.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Birgalikda va Yolg'iz O'r ganish: Hamkorlik, Raqobat va Individual O'r ganish. Boston: Allyn & Bacon.
8. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2024). IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA: Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li. Лучшие интеллектуальные исследования, 22(5), 48-54.
9. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2024). AQLI ZAIFLIKNING TURLARI, BELGILARI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI. PEDAGOOGS, 52(1), 154-159.
10. qizi Mashhura, Z. B. (2024). TIFLOPEDAGOGIKA VA TIFLOPSIXOLOGIYANING UMUMIY MASALALARI. Results of National Scientific Research International Journal, 3(2), 170-177.
11. Qambaraliyeva, D. A. Q., & Siddiqov, A. M. O. G. L. (2024). Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar nutqini o'stirish. Science and Education, 5(2), 525-531.
12. Otajonovna, M. M. (2023). BOLALAR SEREBRAL FALAJIDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Uzbek Scholar Journal, 19, 9-12.
13. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. Science and Education, 5(3), 490-494.
14. Kamolova, A. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining manbalarini o'r ganishning ilmiy-nazariy asoslari. Fan va ta'lim" Ilmiy jurnali/Impact Factor , 3 , 590-592.

15. Xayrullayev, M. M. O. G. L., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Kimyo fanlarini o ‘qitishda rolli o ‘yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Science and Education, 5(11), 187-190.
16. Kamolova, A. O., & Akramjonova, F. A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA INNAVATSION TA’LIM JARAYONLARI ORQALI PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. Экономика и социум, (6-1 (121)), 302-305.